




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL
YANVAR-APREL**

2023- yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent viloyatida jami 3890,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning mos davrigaga nisbatan 109,1 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar




2023- yil 1- may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 3086 tani tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilishi yo'nalishi 52,1 foiz ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 77,5 foizga to'g'ri keldi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 100,5 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 35,9 foiz ulushni va 75,3 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.05.2023- y.	01.05.2022- y.	
Toshkent viloyati	3086	3914	78,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	142	194	73,2
Olmalik	145	213	68,1
Angren	184	271	67,9
Bekobod	131	180	72,8
Ohangaron	111	130	85,4
Chirchiq	284	326	87,1
Yangiyo'l	82	86	95,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	63	92	68,5
Ohangaron	74	88	84,1
Bekobod	93	119	78,2
Bo'stonliq	110	139	79,1
Bo'ka	118	138	85,5
Quyichirchiq	79	90	87,8
Zangiota	222	284	78,2
Yuqori Chirchiq	185	231	80,1
Qibray	315	413	76,3
Parkent	102	112	91,1
Piskent	59	86	68,6
O'rta Chirchiq	160	213	75,1
Chinoz	114	131	87,0
Yangiyo'l	149	197	75,6
Toshkent	164	181	90,6



2023- yil 1- may holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,2)



Chirchiq sh. (9,2)



Zangiota (7,2)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. soʻm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	3890,8	651,5	2360,3	879,0
shaharlar:				
Nurafshon	192,5	3,4	180,8	8,3
Olmaliq	518,7	348,9	146,3	23,5
Angren	126,7	19,7	87,9	19,1
Bekobod	140,2	81,7	47,5	11,0
Ohangaron	32,8	0	23,8	9,0
Chirchiq	178,3	14,4	144,9	19,0
Yangiyoʻl	147,2	9,0	129,1	9,1
tumanlar:				
Oqqoʻrgʻon	165,7	0	157,4	8,3
Ohangaron	134,2	1,9	103,0	29,3
Bekobod	32,1	0	8,5	23,6
Boʻstonliq	157,7	15,0	82,5	60,2
Boʻka	100,5	0	82,9	17,6
Quyichirchiq	161,1	0	125,2	35,9
Zangiota	392,0	8,4	260,9	122,7
Yuqori Chirchiq	261,9	22,8	175,7	63,4
Qibray	367,9	121,8	100,1	146
Parkent	95,5	0	47,3	48,2
Piskent	103,5	0	94,4	9,1
Oʻrta Chirchiq	211,6	0	149,9	61,7
Chinoz	63,6	0	41,2	22,4
Yangiyoʻl	107,1	4,5	44,3	58,3
Toshkent	200,0	0	126,7	73,3



2023- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 651,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 128,0 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi koʻrsatkich darajasidan 12,4 % punktga koʻpayib, 16,7 %ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,7 %i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 106,8 %ni tashkil etgan holda 2360,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

60,7

2023- yil
yanvar-aprel

62,1

2022- yil
yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Zangiota tumani (260,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 11,1 %), Nurafshon shahri (180,8 mlrd. so'm yoki 7,7 %), Yuqori Chirchiq tumani (175,7 mlrd. so'm yoki 7,4 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 22,6 %ni tashkil etdi yoki 879,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 %ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-aprel

743,4
mlrd. so'm


2023- yil
yanvar-aprel

879,0
mlrd. so'm

23,6 %

22,6 %

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 72,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3818,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 1,9 % va 98,1 %ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Ulushi %da



2023- yil
yanvar-aprel



2022- yil
yanvar-aprel

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi %da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,0 %ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,4 % punktga kamayib, 40,3 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,7 % punktga kamayib, 38,7 %ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,0 %ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,7 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 84,0 %ni tashkil qilib, 2,7 % punktga kamaydi.



ulushi %da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi va 4,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 95,4 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,6 % punktga kamaydi.



● **Yirik qurilish tashkilotlari ulushi**

● **Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

2022- yil yanvar-aprel

2023- yil yanvar-aprel



Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi.

Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni.

Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalarini, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsulotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi.

Viloyat iqtisodiyotining yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sohasi – Sanoat hamda qishloq xo'jaligidan keyin 3- o'rinda turadi.

**Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70